

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, II-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA MUAMMOLI KREDITLARNI BARVAQT ANIQLASHNING SUN'YI INTELLEKTGA ASOSLANGAN MENEJMENT MODELINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	14
Alovuddin Jamolov	
YASHIL TRANSPORT: BARQAROR RIVOJLANISH UCHUN IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAMARQAND VILOYATIDA MAHALLIY BUDJETLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	25
Uzakova Kamola Bexzodovna	
O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	31
Xolmurodova Moxichehra Dilmurodovna	
THE IMPACT OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT ON ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM AN ARDL BOUNDS TESTING APPROACH (2000–2024)	36
Ortikov Olloberdi Muzaffar o'g'li	
Rajabova Malika	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI	44
Rustamova Dildora Jamshid qizi	
THIS STUDY EXAMINES BEIJING'S EXPERIENCE IN PROMOTING CROSS-BORDER E-COMMERCE IN TASHKENT FROM THE PERSPECTIVE OF REGIONAL COOPERATION	50
Wang Jiahao	
DORI VOSITALARIGA OID AXBOROTLARNI BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTLARIDA AKS ETTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	58
Yodgorov Xushvakt Mansurovich	
AGROSANOAT MAJMUINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA JAMLANMA DARAJA VA KANALLARARO TAKRORLANISHNI O'LCHASH METODIKASI: «YASHIL» YO'NALISHLAR MISOLIDA	63
Xudaynazarov Bekzod Akramovich	
ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА АКТИВОВ И СТАБИЛЬНОСТИ КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	69
Баймуратова Зина Акилбековна	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYAVIY MUHITNI YANADA RIVOJLANTIRISH VA INFLYATSIYANING SALBIY OQIBATLARINI KAMAYTIRISH YO'NALISHLARI	75
Niyozov Asad Qosimovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING NAZARIY EVOLYUTSIYASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI	80
Afenov Nursultan Nugmatillayevich	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	86
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
GREEN BONDS IN UZBEKISTAN: OPPORTUNITIES, INSTITUTIONAL DEVELOPMENT AND BARRIERS TO SUSTAINABLE FINANCE	92
Umarova Zulaykho Tursunovna	
YASHIL INVESTITSIYALARNI JALB QILISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	97
Teshayev Zafarbek Zokirovich	



RAHBARLIK LAVOZIMLARIDA XOTIN-QIZLAR ULUSHI VA MAVJUD STROTEPLAR TAHLILI	103
Abduraxmonova Feruzabonu Abduraxmon qizi	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	109
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
KATTA HAJMLI IQTISODIY MA'LUMOTLAR (BIG DATA) SHAROITIDA EKONOMETRIK BAHOLASH USULLARINING NAZARIY TRANSFORMATSIYASI.....	115
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
EFFECTIVE MECHANISMS FOR MANAGING ORGANIZATIONAL ECONOMIC SUSTAINABILITY IN THE PROCESS OF JOB OPTIMIZATION.....	121
Odilov Jakhongir Akram ugli	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI BANK KREDITLARI ORQALI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	128
Abdullayev Ahrorjon Akmaljon o'g'li	
ZARGARLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA PERFORMANCE MARKETINGDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	134
Azizova Roxila Baxodir qizi	
IQTISODIYOT NAZARIYASI: NAZARIY ASOSLARDAN AMALIYOTGACHA BO'LGAN IQTISODIY JARAYONLARNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	139
Xamdamiy Amriddin Xamdamiy o'g'li	
УПРАВЛЕНИЕ И ПРИНЯТИЕ РЕШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ.....	145
Taravat Abdul Salam	
ПОВЕДЕНЧЕСКИЙ ПОДХОД В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ РАЗВИТИЕМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ	152
Ikrayeva Nodira Burxon kizi	
STOCK MARKET DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN, 2023–2026: INSTITUTIONAL REFORM, PRIVATIZATION, AND EVIDENCE FROM PRIMARY EXCHANGE MICRODATA.....	159
Alekperova Dilshodakhon	
Toshkentov Kuvonchbek	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI.....	167
Bozorov Ilyos Isomiddinovich	
TIJORAT BANKLARINING KAPITAL BAZASINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY MOLIVAVIY INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	173
Abduraimova Fazilat Hikmatulla qizi	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA YANGI KONSEPTUAL VA USLUBIY YECHIMLAR: SIRKULYAR IQTISODIYOT TAJRIBASI.....	180
Otajanova Shahnoza Shuhratovna	
BANKLARDA RISKLARNI BOSHQARISH, DAROMAD VA NATIJADORLIKNI OSHIRISH	185
Jo'rayev Bekzod Bahodir o'g'li	
INKLYUZIV TA'LIM MUHITINI TA'MINLASHDA UMUMTA'LIM MAKTABLARI MENEJMENTINI HUDUDIY KLASSTERLASH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH MODEL: TASHKILIY-BOSHQARUV MEKANIZMLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	192
Rajapova Guldona Usman qizi	
FERMER XO'JALIKLARIDA MOLIVAVIY NATIJALARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH: FOYDA SIFATI VA BARQARORLIGINI BAHOLASH YONDASHUVLARI	198
Rashidov Baxadir Yusupovich	
HUDUDLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INVESTITSIALARNING ROLI.....	203
Sapayeva Fazilat Norbayevna	



ERKIN IQTISODIY ZONALARDA EKO-SANOAT PARKLARINI TASHKIL ETISH VA EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI BAHOLASH USULLARI	207
Turg'unova Tursunoy Maratovna	
TIJORAT BANKLARIDA JISMONIY SHAXSLARNI KREDITLASHNING TASHKILIY VA HUQUQIY ASOSLARI	212
Aminova Mehriniso Erkinjonovna	
BARQAROR RIVOJLANISH (ESG) PRINSIPLARINING KOMPANIYA BRENDI QIYMATI VA JOZIBADORLIGIGA TA'SIRI	217
Dilfuza Matisakova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIVAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH	224
Raximova Lolaxon Avazovna	
MEHNAT INTIZOMINING KORXONALAR FAOLIYATINING IQTISODIY SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	228
Azizova Sayyora Xamidullayevna	
MINTAQA IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA TIBBIY TURIZM XIZMATLARINING EKONOMETRIK BAHOLANISHI.....	237
Yusupova Mexribon Uktamovna	
KICHIK SANOAT ZONALARIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHNING RAQAMLI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH.....	245
Jo'rayev Po'latjon Komiljon o'g'li	
MAKTABGACHA TA'LIM XIZMATLARI SOHASIDA KICHIK BIZNES RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	251
Madaminova Feruza Tursunboy qizi	
YASHIL INVESTITSIYALARNING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	259
Raximova Shaxnoza Xamzayevna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TAYYOR MAHSULOTLAR EKSPORTINI RAG'BATLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA TA'MINOT YO'LLARI.....	263
Esanov Yusufjon Dilmurod o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT: MOHIYATI, XUSUSIYATLARI VA O'ZBEKISTONDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	267
Sultonov Shahzod Shavkat o'g'li	
O'ZBEKISTON BANLARINIGKING YASHIL BANK MAHSULOTLARI TASHKIL QILISH MEXANIZMLARI VA ULARNING BANK IQTISODIY SAMARADORLIGINI SALBIY TA'SIR QILMAGAN HOLATDA MAHSULOTLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIK TA'MINLASH YO'LLARI.....	275
Nuriddinov Murodjon Nuriddin o'g'li	
JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUVI SHAROITIDA MILLIY EKSPORT SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING MARKETING MEXANIZMLARI.....	281
Jumayeva Zamira Bustonovna	
MARKAZIY OSIYO UCHUN GEOSIYOSIY RISK (GPR) INDEKSINI ISHLAB CHIQISH	285
Qodirova Laylo Otabekovna	
BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARI STARTAP EKOTIZIMINI BOSHQARISH MODELI VA O'ZBEKISTON UCHUN SABOQLAR.....	289
Elmurod Sodiqov Shomurod o'g'li	
INTEGRATSIYALASHGAN HISOBOTNI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI.....	295
Abduvaliyev Zafar Mahmudovich	



INTEGRATSIYALASHGAN HISOBOTNI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI

Abduvaliyev Zafar Mahmudovich

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

E-mail: z.abduvaliyev@taqu.uz

ORCID: 0000-0001-7291-1469

Annotatsiya: Maqolada integratsiyalashgan hisobotni shakllantirishning metodologik tuzilishi Xalqaro IR konsepsiyasining yettita yo'l ko'rsatuvchi tamoyili va sakkizta kontent elementi qurilish materiallari sanoati korxonalari nuqtai nazaridan tanqidiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda tamoyillarga asoslangan va qoidalarga asoslangan tartibga solish falsafalari qiyoslanib, ularning oraliq varianti sifatida "me'yorlashtirilgan professional mulohaza" konsepsiyasi asoslanadi. Muhimlik tahlilining uchta metodikasi (moliyaviy, ta'sir va ikki tomonlama muhimlik) hamda kapitalni miqdoriy baholashning uchta usuli (parallel taqdim etish, monetizatsiya, indekslashtirish) besh mezon bo'yicha baholanib, korxonaning institutsional yetuklik darajasiga bog'langan metodika tanlash algoritmi ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijasida indekslashtirish usuli qurilish materiallari sanoati korxonalari uchun amaliy jihatdan eng maqbul kelishuv sifatida asoslanadi, vaznlash koeffitsiyentlarini belgilashda esa Delfi usuli tavsiya etiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 4-maydagi "Barqaror rivojlanish va atrof-muhit, ijtimoiy hamda korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 221-son qarori ikki tomonlama muhimlikni baholashni majburiy qilgani sharoitida, korxonalar uchun soddalashtirilgan bosqichma-bosqich o'tish yo'li taklif etiladi.

Kalit so'zlar: integratsiyalashgan hisobot, muhimlik tahlili, ikki tomonlama muhimlik, professional mulohaza, indekslashtirish, monetizatsiya, Delfi usuli, proporsional hisobot, kontent-tahlil, qurilish materiallari sanoati.

Аннотация: В статье критически анализируется методологическая архитектура формирования интегрированной отчётности - семь руководящих принципов и восемь элементов содержания Международной концепции IR - с позиции предприятий промышленности строительных материалов. В исследовании сопоставляются философии регулирования, основанного на принципах и на правилах, и в качестве их промежуточного варианта обосновывается концепция "структурированного профессионального суждения". Три методики анализа существенности (финансовая, воздействия и двойная существенность), а также три способа количественной оценки капитала (параллельное представление, монетизация, индексирование) оцениваются по пяти критериям, на основе чего разрабатывается алгоритм выбора методики, привязанный к уровню институциональной зрелости предприятия. В результате обосновано, что метод индексирования является практически наиболее приемлемым компромиссом для предприятий отрасли, а для определения весовых коэффициентов рекомендуется метод Дельфи. В условиях, когда постановление Кабинета Министров № 221 от 4 мая 2026 года сделало обязательной оценку двойной существенности, предложен упрощённый поэтапный путь перехода.

Ключевые слова: интегрированная отчётность, анализ существенности, двойная существенность, профессиональное суждение, индексирование, монетизация, метод Дельфи, пропорциональная отчётность, контент-анализ, промышленность строительных материалов

Abstract: This article critically examines the methodological architecture of integrated reporting - the seven guiding principles and eight content elements of the International IR Framework - from the perspective of building materials enterprises. The study contrasts principles-based and rules-based regulatory philosophies and substantiates the concept of structured professional judgement as an intermediate option. Three materiality methodologies (financial, impact and double materiality) and three approaches to the quantitative valuation of capital (parallel presentation, monetisation and indexation) are assessed against five criteria, on the basis of which an algorithm for selecting a methodology, linked to the institutional maturity of the enterprise, is developed. The study concludes that indexation represents the most practically acceptable compromise for enterprises in the sector, with the Delphi method recommended for establishing weighting coefficients. Given that Resolution No. 221 of the Cabinet of Ministers of 4 May 2026 has made double materiality assessment mandatory, a simplified phased transition pathway is proposed.

Keywords: integrated reporting, materiality analysis, double materiality, professional judgement, indexation, monetisation, Delphi method, proportional reporting, content analysis, building materials industry



KIRISH

Integratsiyalashgan hisobotning nazariy asoslari yetarlicha ishlab chiqilgan bo'lsa-da, amaliyotchilar uchun eng dolzarb savol boshqacha: hisobotni aniq qanday shakllantirish kerak? Ushbu savolga javob berishda jiddiy metodologik dilemma yuzaga keladi — Xalqaro IR konsepsiyasi GRI standartlaridan farqli o'laroq, tamoyillarga asoslangan, qat'iy qoidalarga asoslanmagan yondashuvni tanlagan [1].

Bu tanlov, bir tomondan, turli tarmoq va mamlakatlardagi korxonalarga moslashuvchanlik imkonini bersa, ikkinchi tomondan, amaliyotchilar uchun “qanday qilib to'g'ri bajarish kerak” degan savolga aniq javob yo'qligini anglatadi. Qurilish materiallari sanoati korxonalari uchun bu muammo olti kapital turining bir vaqtda yuqori intensivlikda ishtirok etishi tufayli boshqa tarmoqlarga qaraganda keskinroq namoyon bo'ladi.

Muammoning dolzarbligi 2026-yilda yangi huquqiy o'lchov kasb etdi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 4-maydagi “Barqaror rivojlanish va atrof-muhit, ijtimoiy hamda korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 221-son¹ qarori bilan tasdiqlangan Qoidalarda ikki tomonlama muhimlikni baholash korxonalar uchun majburiy talab sifatida belgilandi, uni birinchi hisobot davridan boshlab qo'llash va har uch yilda kamida bir marta uchinchi tomon ishtirokida mustaqil tasdiqlash nazarda tutildi [2]. Bu esa eng murakkab metodologiyani nisbatan tayyorgarligi past bo'lgan korxonalar oldiga qo'ydi va soddalashtirilgan bosqichma-bosqich o'tish yo'lini ishlab chiqishni dolzarb qildi.

Tadqiqotning maqsadi integratsiyalashgan hisobotni shakllantirishning metodologik vositalarini tanqidiy tahlil qilish va qurilish materiallari sanoati korxonalarining institutsional yetuklik darajasiga bog'langan metodika tanlash algoritmini ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Integratsiyalashgan hisobotni shakllantirishning metodologik vositalari xalqaro standartlashtiruvchi tashkilotlarning hujjatlarida belgilangan: Xalqaro integratsiyalashgan hisobot kengashining ramkasi [1], Global hisobot tashabbusining muhimlik standarti [3], Xalqaro barqarorlik standartlari kengashining IFRS S1 standarti [5] hamda Yevropa barqarorlik hisoboti standartlari [11] shular jumlasidandir. Qurilish materiallari sanoati uchun tarmoq ko'rsatkichlari Barqarorlik hisobi standartlari kengashi tomonidan ishlab chiqilgan [7].

Ko'rsatkichlarni muvozanatlashtirish metodikasining nazariy asoslari R. Kaplan va D. Norton ishlarida [8], ekspert baholashning ko'p raundli usuli esa H. Linstone va M. Turoff tomonidan asoslangan [10].

Integratsiyalashgan hisobot sifatini baholash masalalari I. Permatasari va B. Tjahjadi tomonidan tizimli tahlil qilingan; ularning tadqiqoti sifat ta'rifi va o'lchamlari bo'yicha umumiy kelishuv mavjud emasligini ko'rsatdi.

Shu bilan birga, muhimlikni baholash va kapitalni miqdoriy o'lchash metodikalarini tanlash mezonlari ishlab chiqilmagan. Mavjud tadqiqotlar ayrim usullarni alohida bayon etadi, ammo korxonaning resurs imkoniyati va ma'lumotlar bazasiga qarab metodika tanlash algoritmi taklif etilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot qiyosiy-metodologik tahlil usuliga asoslanadi: muhimlik tahlilining uchta metodikasi va kapitalni baholashning uchta usuli oldindan belgilangan mezonlar to'plami bo'yicha solishtirildi. Baholash mezonlari sifatida metodologik halollik (haqiqiy noaniqlikni yashirmaslik), foydalanuvchi uchun tushunarlilik, taqqoslanuvchanlik, tashqi tasdiqlash imkoniyati va amalga oshirish xarajati qabul qilindi.

Nazariy tahlil doirasida buxgalteriya hisobi nazariyasining ikki asosiy tamoyili — “qaror qabul qilish uchun foydalilik” va “taqqoslanuvchanlik” — metodologiyani baholashning nazariy mezoni sifatida qo'llanildi. Tartibga solish falsafalarini qiyoslashda huquqiy oila nazariyasidan foydalanildi.

Normativ tahlil doirasida IIRC Xalqaro IR konsepsiyasi, GRI 3 “Muhim mavzular” standarti, IFRS S1/S2 standartlari, Yevropa Ittifoqining ESRS standartlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 4-maydagi 221-son qarori bilan tasdiqlangan Qoidalar solishtirildi.

Metodika tanlash algoritmini ishlab chiqishda qaror daraxti usuli qo'llanilib, tanlov korxonaning tashkiliy yetuklik darajasi va bozor yo'naltirilganligiga bog'landi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Konsepsiyaning metodologik arxitekturasini. Xalqaro IR konsepsiyasi integratsiyalashgan hisobotni tayyorlashning metodologik asosini tashkil etuvchi yettita yo'l ko'rsatuvchi tamoyilni belgilaydi. Ushbu tamoyillar alohida emas, balki birgalikda qo'llanilishi lozim; ular orasida ziddiyat yuzaga kelgan taqdirda (masalan, qisqalik

1 <https://www.lex.uz/pdfs/-8171367>



va to'liqlik tamoyillari o'rtasidagi tabiiy tarang munosabat) professional mulohaza asosida muvozanat topilishi kerak.

Tamoyillarning qurilish materiallari sanoati korxonalari uchun amaliy og'irligi bir xil emas. "Axborot bog'lanishi" va "strategik yo'nalganlik" tamoyillari eng murakkab hisoblanadi, zero ular energiya sarfi, uglerod izi va moliyaviy natija o'rtasidagi sabab-oqibat zanjirini miqdoriy ko'rsatkichlar bilan isbotlashni talab etadi. Aksincha, "ishonchlilik va to'liqlik" hamda "qisqalik" tamoyillari amaldagi buxgalteriya amaliyoti bazasida nisbatan oson ta'minlanadi (1-jadval).

1-jadval

Yettita yo'l ko'rsatuvchi tamoyil va ularni ta'minlash murakkabligi²

№	Tamoyil	Mazmuni	Murakkablik darajasi
	Strategik yo'nalganlik va kelajakka moyillik	Hisobot korxona strategiyasi va uning qiymat yaratish qobiliyati bilan bog'liqligini yoritishi lozim	Yuqori
	Axborot bog'lanishi (connectivity)	Qiymat yaratishga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning yaxlit manzarasi	Juda yuqori
	Manfaatdor tomonlar bilan munosabatlar	Asosiy manfaatdor tomonlar bilan munosabatlar tabiati va sifati	O'rta
	Muhimlik (materiality)	Qiymat yaratish qobiliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi masalalarni oshkor qilish	Yuqori
	Qisqalik	Barcha muhim ma'lumotlarni o'z ichiga olgan holda ixcham taqdim etish	Past
	Ishonchlilik va to'liqlik	Ijobiy va salbiy tomonlarni muvozanatli, xatoliksiz aks ettirish	Past
	Izchillik va taqqoslanuvchanlik	Vaqt bo'yicha izchillik va boshqa tashkilotlar bilan solishtirish imkoniyati	O'rta

Sakkizta kontent elementidan uchasi — biznes-model, xavf va imkoniyatlar, faoliyat natijalari — qurilish materiallari sanoatida sohaga xos aniq mazmun bilan to'ldirilishi shart. Bu yerda biznes-model xomashyo konidan tayyor mahsulotgacha bo'lgan zanjirni, xavflar esa, avvalo, xomashyo va energiya narxlari hamda ekologik talablar qat'iylashuvini qamrab oladi. Qolgan elementlar universal xarakterga ega bo'lib, ularni to'ldirish uchun mavjud korporativ hujjatlar yetarli baza yaratadi. Demak, hisobotni loyihalashda asosiy metodologik kuch aynan birinchi guruh elementlariga yo'naltirilishi lozim.

Tamoyillarga va qoidalarga asoslangan yondashuvlar dilemmasi. Buxgalteriya hisobi nazariyasida ikki asosiy tartibga solish falsafasi farqlanadi. Qoidalarga asoslangan yondashuv aniq, batafsil va deyarli chetlanishga imkon bermaydigan ko'rsatmalarni beradi; tamoyillarga asoslangan yondashuv esa umumiy tamoyillarni belgilab, ularni qanday amalga oshirish bo'yicha professional mulohazani tayyorlovchi tomonga qoldiradi. Tamoyillarga asoslangan yondashuvning afzalligi moslashuvchanlik, kamchiligi esa natijaviy hisobotlarning taqqoslanuvchanligi pasayishi va "ijodiy hisobot" xavfining kuchayishi hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda ikki falsafa o'rtasidagi tanlov ko'p jihatdan mamlakatning huquqiy an'anasiga bog'liq: kodifikatsiyalashgan (kontinental-yevropa) huquq tizimiga ega mamlakatlar odatda batafsil, qoidalarga asoslangan tartibga solishga moyil bo'lsa, umumiy huquq an'anasiga ega mamlakatlar tamoyillarga asoslangan yondashuvga ko'proq moyil bo'ladi. O'zbekiston, kontinental-yevropa huquqiy an'anasiga yaqinroq mamlakat sifatida, tarixan ko'proq batafsil me'yoriy hujjatlarga tayangan. Bu holat IIRCning tamoyillarga asoslangan metodologiyasini milliy sharoitga moslashtirishda alohida metodologik ehtiyotkorlikni talab qiladi, chunki mahalliy amaliyotchilar aniqroq ko'rsatmalarga o'rganib qolgan.

Ushbu ziddiyatning yechimi sifatida xalqaro amaliyotda "me'yorlashtirilgan professional mulohaza" konsepsiyasi rivojlanmoqda. Unga ko'ra, to'liq erkin mulohazadan farqli o'laroq, mutaxassisga qaror qabul qilishda tayanish uchun tuzilmalashgan savolnoma, tekshirish ro'yxatlari yoki qaror daraxtlari taqdim etiladi. Bu mulohazaning izchilligini oshiradi, ammo uning moslashuvchanligini butunlay yo'q qilmaydi. Mazkur tadqiqotda taklif etilayotgan metodik yondashuv aynan shu falsafaga asoslanadi.

Amaliyotda muhimlik tahlili uch bosqichli jarayon sifatida amalga oshiriladi: identifikatsiya, baholash va ustuvorlashtirish. Metodikalar esa yo'nalishi bo'yicha farqlanadi (2-jadval).


2 Manba: Muallif ishlanmasi.



No	Metodika	Yo'nalishi	Standart	Qaysi korxonalar uchun maqbul
1	Moliyaviy muhimlik	Ichkariga yo'naltirilgan (outside-in): tashqi omillarning moliyaviy natijaga ta'siri	IFRS S1/S2 (ISSB)	Xalqaro moliya bozorlaridan kapital tortuvchi, fond birjalarida ro'yxatdan o'tgan korxonalar
2	Ta'sir muhimligi	Tashqariga yo'naltirilgan (inside-out): korxona faoliyatining jamiyat va atrof-muhitga ta'siri	GRI standartlari	Davlat ulushi yuqori, ijtimoiy-ekologik javobgarlikka alohida e'tibor beruvchi korxonalar
3	Ikki tomonlama muhimlik	Ikkala yo'nalish birgalikda	ESRS (CSRD); O'zbekistonda - VM 221-son qarori Qoidalari	Institutsional jihatdan eng tayyor yirik korxonalar; 221-son qaror subyektlari uchun majburiy

Qurilish materiallari sanoati korxonalari uchun ikki yo'nalish ko'pincha farqli natija berishi mumkin. Masalan, ohaktosh karyerini ekspluatatsiya qiluvchi korxona uchun uning atrof-muhitga ta'siri (tashqariga yo'naltirilgan) juda yuqori bo'lishi mumkin, biroq qisqa muddatda iqlim xavflarining moliyaviy natijalarga ta'siri (ichkariga yo'naltirilgan) unchalik sezilmasligi mumkin. Bu farq korxona uchun turlicha ustuvorliklarni belgilaydi va aynan shu sababdan ikki tomonlama yondashuv metodologik jihatdan to'liqroq hisoblanadi.

O'lchov birliklari muvofiqsizligi muammosini amaliy hal qilishning uchta usuli mavjud. Parallel taqdim etish usulida har bir kapital turi o'z tabiiy o'lchov birligida alohida taqdim etiladi. Monetizatsiya usulida barcha kapitallar pul birligiga aylantiriladi. Indeksashtirish usulida har bir kapital 0 dan 100 gacha bo'lgan normalashtirilgan shkalaga aylantirilib, keyin vaznlash koeffitsiyentlari yordamida kompozit indeksga birlashtiriladi (1-rasm).



1-rasm. Kapitalni miqdoriy baholash usullarining besh mezon bo'yicha qiyosiy bahosi⁴

Qiyosiy baholash natijalari shuni ko'rsatadiki, parallel taqdim etish metodologik jihatdan eng "halol" bo'lsa-da, foydalanuvchilar uchun tushunish va taqqoslashni murakkablashtiradi. Monetizatsiya tushunarli yagona ko'rsatkich beradi, biroq baholash taxminlarining subyektivligi tufayli ishonchlilik va tekshiriluvchanligi past bo'ladi. Indeksashtirish barcha mezonlar bo'yicha nisbatan barqaror natija ko'rsatib, qurilish materiallari sanoati korxonalari uchun amaliy jihatdan eng maqbul kelishuv sifatida namoyon bo'ladi.


Indeksashtirishni qo'llashda eng muhim metodologik qaror — bu har bir kapital turiga qanday vazn berish kerakligini belgilashdir. Universal, barcha tarmoqlar uchun bir xil vaznlash tizimi ilmiy jihatdan asossiz hisoblanadi, chunki turli kichik tarmoqlar uchun turli kapitallar ustuvor ahamiyatga ega. Shu sababli, vaznlash koeffitsiyentlarini belgilashda Delfi usuli — bir nechta ekspertdan bir necha bosqichda, bir-birlaridan bexabar holda so'rov o'tkazib, anonim fikrlarni umimlashtirish orqali konsensusga erishish metodikasi — tavsiya etiladi. Muqobil sifatida asosiy komponentlar tahlili qo'llanilishi mumkin.

³ Manba: Muallif ishlanmasi.

⁴ Manba: Muallif ishlanmasi.



Yuqoridagi tahlil asosida korxonaning institutsional yetuklik darajasiga bog'langan metodika tanlash algoritmi ishlab chiqildi (2-rasm).



2-rasm. Muhimlik metodikasi va kapitalni baholash usulini tanlash algoritmi⁵

Algoritmnining mantiqi quyidagicha: institutsional tayyorgarligi past (1–2-bosqich) korxonalar bir tomonlama muhimlik va parallel taqdim etishdan boshlaydi; o'rta darajadagi (3–4-bosqich) korxonalar kengaytirilgan bir tomonlama muhimlik va indekslashtirishga o'tadi. Eng tayyor (5-bosqich) korxonalar esa to'liq ikki tomonlama muhimlikni va qisman monetizatsiyani qo'llaydi. Barcha bosqichlarda yakuniy natija integratsiyalashganlik darajasi indeksiga (IDI) jamlanadi, bu esa korxonalararo taqqoslash imkonini beradi.

Metodologik plyuralizm — bir nechta parallel metodikaning bir vaqtda mavjudligi — ikki xil natijaga olib keladi. Ijobiy tomondan, u turli institutsional sharoitga ega korxonalarga o'ziga mos metodikani tanlash erkinligini beradi. Salbiy tomondan, u xalqaro miqyosda hisobotlarning to'liq taqqoslanishini qiyinlashtiradi va korxonalar uchun qo'shimcha strategik qarorni talab qiladi.

Muhimlik tahlilining subyektivlik muammosi alohida e'tiborga loyiq. Uch bosqichli jarayonning har bir bosqichi sezilarli subyektiv mulohazaga tayanadi. "Qaysi manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashish kerak" va "qanday mezon bo'yicha ustuvorlik berish kerak" degan savollarga yagona, obyektiv javob yo'q. Natijada, bir xil kichik tarmoqdagi ikki korxona bir xil masalani turlicha muhimlik darajasida baholashi mumkin. Bu muammo ikki tomonlama muhimlik metodikasida yanada kuchayadi, chunki u ikkita alohida subyektiv baholashni birlashtirishni talab qiladi.

Subyektivlikni kamaytirishning amaliy vositasi sanoat tarmog'iga xos, oldindan belgilangan "tipik muhim mavzular" ro'yxatini ishlab chiqishdir. GRI ning Sektor standartlari dasturi va SASBning tarmoqqa xos ko'rsatkichlari aynan shu vazifani bajaradi. Diqqatga sazovor jihati shundaki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 4-maydagi 221-son qarori Qoidalari korxonalardan SASB standartlarini IFRS SDS bilan uyg'un holda qo'llashni talab qiladi [2], bu esa milliy amaliyotda tarmoqqa xos ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish uchun huquqiy asos yaratadi.

Alohida ta'kidlash lozimki, kompozit indeks yondashuvi ilmiy adabiyotda ma'lum darajada tanqidga ham uchraydi: turli o'lchov birliklariga ega kapitallarni sun'iy vaznlash koeffitsiyentlari yordamida yagona songa jamlash metodologik jihatdan shartli bo'lib, natijaviy indeks qanday vaznlash tanlanganiga qarab turlicha natija berishi mumkin. Ushbu tanqidga javoban, mazkur tadqiqotda mutanosib yondashuv taklif etiladi: kapitallar bitta songa mexanik jamlanmaydi, aksincha, ularning har biri o'z tabiiy o'lchov birligida saqlangan holda taqdim etiladi, indeks esa faqat qo'shimcha, umumlashtiruvchi vosita sifatida hisoblanadi.

Metodologik tanlovga ta'sir qiluvchi yana bir muhim omil — bu korxona hajmi. Xalqaro amaliyotda bu yondashuv "proporsional hisobot berish" tamoyili sifatida tanilgan. Yevropa Ittifoqining 2026-yildagi Omnibus I direktivasi ushbu tamoyilni radikal shaklda qo'lladi: majburiy hisobot chegarasi 1 000 nafardan ortiq xodim va 450 million evrodan ortiq aylanmagacha ko'tarildi [6]. O'zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalarining

5 Manba: Muallif ishlanmasi.



aksariyati kichik biznes subyektlariga tegishli ekanligini hisobga olib, milliy metodik tavsiyanomaning markaziy tamoyili sifatida aynan proporsionallikni qabul qilish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot quyidagi asosiy natijalarga olib keldi.

1. IIRC konsepsiyasining tamoyillarga asoslangan arxitekturasini hisobotning tez tarqalishini ta'minlagan, biroq bir vaqtning o'zida hisobot sifati va chuqurligida katta tafovutlarni keltirib chiqargan. Yettita tamoyildan "axborot bog'lanishi" va "strategik yo'nalganlik" qurilish materiallari sanoati uchun eng murakkab hisoblanadi.

2. O'zbekistonning kontinental-yevropa huquqiy an'anasi sharoitida tamoyillarga asoslangan metodologiyani to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish samarasiz bo'lishi mumkin; oraliq yechim sifatida "me'yorlashtirilgan professional mulohaza" falsafasi tuzilmalashgan savolnoma va tekshirish ro'yxatlari asosidagi yondashuvga asoslanadi.

3. Kapitalni miqdoriy baholashning uchta usulidan indekslashtirish besh mezon bo'yicha eng barqaror natija ko'rsatadi va tarmoq korxonalari uchun eng maqbul kelishuv hisoblanadi, vaznlash koeffitsiyentlarini belgilashda esa Delfi usuli tavsiya etiladi.

4. Metodika tanlash korxonaning institutsional yetuklik darajasiga bog'lanishi lozim. Ishlab chiqilgan algoritm uch darajali tanlov mantiqini taqdim etadi va yakuniy natijani integratsiyalashganlik darajasi indeksiga jamlaydi.

Keyingi tadqiqotlarning istiqbolli yo'nalishi Delfi usuli asosida qurilish materiallari sanoati uchun vaznlash koeffitsiyentlarini empirik aniqlash va taklif etilgan algoritmni pilot korxonalarda sinovdan o'tkazishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. International Integrated Reporting Council. International <IR> Framework. - London: IIRC, 2013 (revised January 2021). - 56 p.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Barqaror rivojlanish va atrof-muhit, ijtimoiy hamda korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2026-yil 4-maydagi 221-son qarori // lex.uz/docs/8171367

3. Global Reporting Initiative. GRI 3: Material Topics 2021. - Amsterdam: GSSB, 2021. - 32 p.

4. Abduvaliyev, Z. M. (2020a). Korxonalarda integratsiyalashgan hisobot shakllantirishga o'tish zamon talabidir. TDTU Ilmiy jurnali (Ta'lim tizimida ijtimoiy-humanitar fanlar), №2, 39–45-b.

5. IFRS Foundation. IFRS S1 General Requirements for Disclosure of Sustainability-related Financial Information; IFRS S2 Climate-related Disclosures. - London: ISSB, June 2023.

6. Directive (EU) 2026/470 of the European Parliament and of the Council (Omnibus I) // Official Journal of the European Union, 26.02.2026.

7. Sustainability Accounting Standards Board. SASB Standards: Construction Materials. - San Francisco: SASB (IFRS Foundation), 2023.

8. Kaplan R.S., Norton D.P. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. - Boston: Harvard Business School Press, 1996. - 322 p.

9. Maxsudov, B. Yu., Abduvaliyev, Z. M. (2021a). Manfaatdor tomonlar (steykholderlar)ning korporativ ijtimoiy mas'uliyatdagi roli. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, №3, 1–10-b.

10. Linstone H.A., Turoff M. The Delphi Method: Techniques and Applications. - Reading: Addison-Wesley, 1975. - 620 p.

11. European Financial Reporting Advisory Group. European Sustainability Reporting Standards (ESRS): Set 1. - Brussels: EFRAG, 2023.

12. Abduvaliyev, Z. M. (2022). Raqamli iqtisodiyot sharoitida integratsiyalashgan hisobotni reengineering qilish modeli. International Scientific-Online Conference "Innovation in the Modern Education System" (Washington, USA), Part 18, pp. 25–34.

13. KPMG International. The Move to Mandatory Reporting: Survey of Sustainability Reporting 2024. - Amstelveen: KPMG, 2024. - 84 p.

14. Maxsudov, B. Yu., Abduvaliyev, M. Z. (2021b). Theoretical Foundations of the Formation of Corporate Reporting. Academic Journal of Digital Economics and Stability, Vol. 8, pp. 12–24.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
